

O`ZBET KISTET N RET SPUBLIKASIT ET LIY VA O`RTA MAMTUS
TAAIM VAZIRLIGI
AL-MET RAZMIY NET MIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVYERSITET TI
TURIZM VA IQTISODIYOT FAKULTETI



303-iqtisod guruhi tolibi
Axmedov Bohodirning

REFERATI

**MAVZU: O'zbekistonda Respublikasida Tijorat
banklari kredit jarayonlarini takomillashtirish
yo'llari**

Urganch-2015

Mavzu: ñO'zbekistonda Respublikasida Tijorat banklari kredit jarayonlarini takomillashtirish yo`llariò

Reja:

Kirish.

- 1. Kreditning mohiyati, ahamiyati va uning iqtisodiyotda tutgan o`rni.**
- 2. Tijorat banklari kreditlarini tasniflash tizimi va mezonlari.**
- 3. Tijorat banklari kreditlari bo`yicha ehtimoliy yo`qotishlarga doir zahirani shakllantirish va undan foydalanish tartibi.**

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

KIRISH.

Banklar bozor strukturasi tizimida markaziy bo'g'in hisoblanadi. Ular faoliyatining rivojlanishi bozor mexanizmini qurishning real sharti hisoblanadi. Mamlakatimizda iqtisodiy qayta qurish jarayoni bank tizimini shakllantirishdan boshlandi. Bu soha bugun ham jadal rivojlanmoqda. Ma'lumki, uzoq vaqt davomida banklar davlat organlari hisoblanar va iqtisodiyotning ma'muriy-buyruqbozlik tizimi asosida boshqarilar edi. Natijada, respublikamizda bank ishi an'analari va tajribasi yo'qotildi. Bugun biz bozor iqtisodiyotini qurish orqali qisqa vaqt ichida bank ishini tashkil etishni zamonaviy jaxon darajasiga yetkazishga umid qilmoqdamiz. Respublikamiz banklarining tijoratlashuvi moliya institutlari o'rtasidagi raqobatni kuchaytirib, bank amaliyotida xorij tajribasida sinalgan samarali tajribalarni qo'llash va yaxshi yutuqlarga erishishga imkon beradi.

O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tar ekan, ushbu tizimning samarali ishlashi va zarur infratuzilmani shakllantirishni kredit munosabatlarini rivojlantirishsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Rivojlangan va kengayish bosqichida har bir korxona uchun moliyalashtirish mablag'lari suv va havodek zarur. Real sektorni moliyalashtirish manbalari o'rtasida banklarning, xususan, bank kreditlarining ahamiyati beqiyosdir¹.

Kredit faoliyati bankni kredit tashkiloti sifatida shakllantiruvchi faoliyat hisoblanadi. Banklar xizmat ko'rsatish doirasini qanchalik kengaytirmasin, baribir kredit operatsiyalari banklar uchun asosiy daromad manbai bo'lib qolaveradi. SHunday ekan, bank amaliyotida bunday kredit operatsiyalari katta riskni ham keltirib chiqaradi, chunki daromad qancha katta bo'lsa risk ham shunchalik katta bo'ladi. Ayniqsa qaytmas kreditlar miqdorining oshishish ehtimoli bank uchun katta zarar xavfini keltirib chiqaradi.

Tijorat banklari kreditlarini tasniflashni to'g'ri tashkil etish bankning samarali ishlashiga imkoniyat yaratadi. Muammoli kreditlar bilan ishlash, ularga tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqish va zaxira yaratish shular jumlasidandir.

Muammoli kreditlar bilan ishlash masalasining dolzarbligi zamonaviy sharoitlarda bir necha omillar bilan bog'liq:

birinchidan, banklarda to'g'ri tashkil etilgan kredit siyosati asosida olib borilgan samarali kredit operatsiyalari bank uchun yuqori daromad keltirab, muammoli kreditlarga yo'l qo'yilmaslikka e'tibor qaratiladi.

ikkinchidan, har bir bankda muammoli ssudalar bilan ishlashning zamonaviy va samarali texnologiyasi joriy etilar ekan, bu narsa ham bankning samarali ishlashini ta'minlab uning katta daromad ko'rishini ta'minlaydi, ham mamlakatda kelib chiqishi mumkin bo'lgan moliyaviy inqirozlarning oldini oladi.

SHu o'rinda so'nggi yillarda respublikamiz tijorat banklarida muammoli kreditlar ulushi uzluksiz o'sib borganligi va 2007 yilda bankning jami aktivlari tarkibida muammoli kreditlar ulushi 19.8% ga yetganini kuzatish mumkin. 2008 yildan e'tiboran esa pasayish tendensiyasi kuzatilgan. 2007 yilga qadar muddati o'tgan qarzdorlik o'sish sur'ati ham jami kreditlarning o'sish sur'atlaridan yuqori bo'lib kelgan va 2008 yildan e'tiboran pasayish sur'atiga ega bo'lgan.

Ayniqsa, bunday kreditlarning katta qismi sanoat tarmohiga to'g'ri kelmoqda. Ipoteka kreditlari bilan bohliq mammoli kreditlar hajmi aoldingi yilga nisbatan qariyb ikki barobar o'sib, 2007 yildagi 4.3% dan 2008 yilga kelib 8% ga yetgan. Muammoli kreditlarning eng katta ulushi O'zbekiston Respublikasi TIF Milliy banki va DAT Asaka banklari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Xalqaro bank amaliyotiga asosan, bank tizimining inqirozlari bank tizimi aktivlari tarkibida muammoli kreditlar ulushining 11% i nuqtasidan boshlangan. Bu esa, mazkur muammoni yechish bo'yicha keskin choralar qabul qilishni talab etadi. So'nggi yillarda xorijiy banklarda muammoli kreditlarning ko'payib ketishi jahon moliyaviy inqirozini keltirib chiqardi.

¹ S. Oqchilov, R. F. I. Q. L. d. B. S. d. G. f. h. d. L. i. x. Q. f. w. l. s. d. f. h. j. d. S. d. O. l. s. t. a. f. h. o. O. w. d. a. f. d. O. , d. Q. f. d. O. s. d. f. d. S. h. j. t. a. f. L. O. q. f. w. o. O. f. f. i. g. u. s. " i. l. q. f. h. h. d. f. a. s. . : E. L. B. j. f. d. f. i. s. d. z. 2005, 85-B.

Bunday holat esa, mamlakat bank tizimining barqarorligini ta'minlashga, ya'ni bank mablag'larining aylanishiga, bankning o'z mijozlari oldidagi majburiyatlarini o'z vaqtida ijro etishiga salbiy ta'sir etmoqda. Muammoli kreditlardan kelib chiqadigan zararlar quyidagilarda yanada sezilarli bo'ladi:

1. Tijorat banklari daromad keltiruvchi aktivlari muzlatilishi;
2. Omonatchilar, investorlar va boshqa mijozlarning mazkur bankka bo'lgan ishonchining yo'qolishi hamda bank nufuzining tushib ketishi;
3. Tijorat banklarining kredit bo'limlari tomonidan alohida e'tibor va nazoratni talab etilishi sababli bank ma'muriy xarajatlarining ortib ketishi;
4. Kredit operasialaridan kelayotgan foyda hajmining qisqarishi tufayli moddiy rag'batlantirishlarning kamayishi natijasida bankning malakali kadrlaridan mahrum bo'lish xatarini ortishi va boshqalar.

Bugungi kunda jahonda yuz bergan moliyaviy inqiroz bank tizimida inqirozgacha qo'llanib kelinayotgan ko'pgina instrumentlarni inkor etdi. Muammoli kreditlarni bartaraf etishda xorij amaliyotining o'zi qator kamchiliklarga ega ekanligini ko'rsatdi. Bu esa, respublikamizda mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda, bank tizimining muammoli kreditlar bilan ishlash faoliyatini samaradorligini oshirishda o'zimizga xos takomillashtirish yo'llarini izlab topishimiz kerak ekanligini anglatadi.

1. Kreditning mohiyati, ahamiyati va uning iqtisodiyotda tutgan o'rnini.

Kredit tovar-pul munosabatlari mavjud sharoitdagi takror ishlab chiqarish jarayonining ajralmas bir qismi bo'lib, tovar ishlab chiqarish kredit munosabatlari vujudga kelishining tabiiy asosi hisoblanadi. Kreditning vujudga kelishini nafaqat ichki iste'mol uchun tovar ishlab chiqarish doirasidan emas, balki asosan yuridik jihatdan mustaqil, bir-biriga mulkdor sifatida qarama-qarshi turuvchi va iqtisodiy munosabatlarga kirishishga tayyor tovar egalari faoliyat ko'rsatayotgan muomala doirasidan qidirish kerak.

Bizga ma'lumki, pul mablag'lariga ko'p hollarda kreditlarni, korxonalarning hisobvarag'dagi mablag'larini va naqd pullarni, aylanma mablag'larini va moliyaviy resurslarni kiritadilar.

Bu iqtisodiy kategoriyalar tashqi tomondan o'xshagani bilan, ularning ichki xususiyatlari juda xilma-xil va bir-biriga o'xshamaydi.

Kredit - bu vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini pul egasi yoki boshqalar tomonidan ma'lum muddatga, haq to'lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqqan iqtisodiy munosabatlar yig'indisidir.

Kredit yordamida tovar-moddiy boyliklari, turli mashina va mexanizmlar sotib olinadi, iste'molchilar mablag'lari yetarli bo'lmagan sharoitda to'lovni kechiktirib, tovarlar sotib olishlari va boshqa har xil to'lovlarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Kredit iqtisodiy kategoriya bo'lib, ijtimoiy munosabatlarning aniq bir ko'rinishi sifatida yuzaga chiqadi.

Kredit har qanday ijtimoiy munosabat emas, balki ijtimoiy ishlab chiqarish mahsuli, qiymatning harakati, qarz beruvchi va qarz oluvchi o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni ifodalovchi kategoriyadir.

Kreditning mohiyati uning ichki belgilarini ochib berishga qaratilgan. Kreditning mohiyatini ochish i bu uning sifatlarini, muhim tomonlarini, iqtisodiy munosabatlar tizimining bir elementi sifatida ko'rsatuvchi asoslarini bilish demakdir.

Iqtisodiy kategoriya sifatida kreditning mohiyati ko'pgina iqtisodchi olimlar tomonidan o'rganilib chiqilgan va ular tomonidan kreditning mohiyati bo'yicha turlicha fikr bildirilgan.

Masalan, E. Voznesenskiy, A. Zverev, D. Allaxverdyan kabi olim kredit maxsus kategoriya hisoblansa-da, u moliya tarkibiga kiradi, deb hisoblashadi.

V. Zaxarov, O. Lavrushin, M. Pessel, I. Levchuk, V. Rybin, A. Qodirov, T. Qoraliev kabi olimlar esa kreditni moliya bilan parallel ravishda faoliyat ko'rsatuvchi alohida mustaqil iqtisodiy kategoriya, deb hisoblaydilar.

Kreditning mustaqil kategoriya sifatida mohiyatini aniqlash murakkab savollardan biridir.

Kredit qarzga beriladigan qiymatning harakati sifatida tushunish mumkin.

Zaxarov V. «Kredit vaqtinchalik foydalanishga beriladigan qiymat bo'yicha bo'ladigan ijtimoiy munosabatdir» deb xulosa qilgan bo'lsa, Qodirov A., Pessel M. esa kredit iqtisodiy kategoriya bo'lib, unda ishlab chiqarish munosabatlari o'z aksini topadi va davlat, xo'jalik tashkilotlari, korxonalar, muassasalar bir-biriga qiymatni ma'lum vaqtga, qaytarib berish va to'lash sharti bilan beradilar, deb uqtiradilar.

YUqoridagi fikrlarga asoslangan holda kreditning ba'zi muhim tomonlari aniqlanadi:

birinchidan, uning ijtimoiy mahsulot yaratish, milliy daromad va pul resurslarini qayta taqsimlashga bog'liqligi;

ikkinchidan, kreditning harakat shakliga (tovar yoki pul tarzida) ega ekanligi;

uchinchidan, takror ishlab chiqarishdagi harakatning asosiy hal etuvchi belgisi (qarz) ekanligi va h. k.

Berilgan kredit qaytuvchanlik xarakteriga ega. U xuddi shu sifati bilan moliyadan farq qiladi.

Ssuda kapitali manbalarining tahlili kreditning iqtisodiy kategoriya sifatidagi mohiyatini aniqlashga asos bo'lib xizmat qildi.

Bir qator iqtisodchilarning fikricha, kredit jamiyatdagi vaqtincha bo'sh pul mablag'larini yig'ish va ularni taqsimlash shaklidir.

Bu nuqtai nazardan, kredit vaqtincha bo'sh pul mablag'larini qarzga berish bo'lib, muayyan belgilangan muddatdan so'ng bu mablag'lar o'z manbasiga qaytib kelishi kerak.

Kreditning mohiyatini yanada aniqlashtirish uchun uning tarkibini, harakat bosqichlarini, iqtisodiy tushuncha sifatidagi muhim belgilarini va ijtimoiy - iqtisodiy xarakteristikasini ko'rib chiqamiz. Kreditning mohiyatini tushunish uchun, avvalambor, uning tarkibi nimadan iborat ekanligini tushunib olish zarur. Kredit munosabat bo'lishi uchun uning zarur elementlari i kreditning ob'ekti va sub'ekti bo'lishi zarur.

Kredit munosabatlarida sub'ektlar ikki xil bo'ladi:

1. Kreditor (qarz beruvchi)
2. Qarz oluvchi

Bundan tashqari, kredit munosabatlari tarkibining elementi sifatida kreditning ob'ekti yuzaga keladi.

Kreditning ahamiyati uning mohiyati va funksiyalari orqali aniqlanadi.

Kreditning ahamiyatini kreditni intensivlashtirish dastagi va rag'batlantiruvchisi, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda bajaradigan funksiyalarining natijasi sifatida aniqlashtirish mumkin.

Qarzga beriluvchi qiymatni vaqtincha foydalanishga berish funksiyasi.

Kredit va pul mablag'lari o'rtasidagi munosabatlardan kelib chiqqan holda, kreditning haqiqiy pullarni kredit pullari bilan almashtirish funksiyasi oldinga surilgan. Lekin bu funksiya hozirgi kunda iqtisodiy munosabatlar «sahnasidan» chiqib ketgan.

Kreditning tashqi muhit bilan aloqasi uning ikkinchi funksiyasini keltirib chiqaradi.

2. Qayta taqsimlash funksiyasi.

Kredit takror ishlab chiqarish jarayonining barcha fazalariga - ishlab chiqarish, taqsimlash, muomala va iste'molga xizmat ko'rsa-tadi.

Takror ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq holda kredit, ishlab chiqarish, taqsimlash yoki iste'mol jarayonida kechadigan funksiyalardan farqli o'laroq qayta taqsimlash funksiyasini bajaradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ssuda kapitali bozori vaqtincha bo'sh moliyaviy resurslarni bir faoliyat jabhasidan boshqasiga yo'naltiruvchi va natijada yuqori foydani ta'minlovchi o'ziga xos dastak sifatida namoyon bo'ladi.

Qayta taqsimlash funksiyasi yordamida korxonalar, tashkilotlar, davlat va shaxsiy sektorning bo'sh pul mablag'lari va daromadlari ssuda kapitaliga aylantiriladi va vaqtincha foydalanishga, muayyan to'lov asosida beriladi. Bu funksiya yordamida ishlab chiqarishdagi proporsiyalar va pul kapitali harakati boshqarilib turiladi.

O'zining turli tarmoqlar va mintaqalarda tabaqalanish darajasiga tayanib, kredit iqtisodning stixiyali makroboshqaruvchisi sifatida namoyon bo'ladi. Bazi hollarda bu funksiyaning amalga oshirilishi bozor tizimida nomutanosiblikning chuqurlashuviga olib kelishi mumkin. Xuddi shunday holat MHD davlatlarida bozor iqtisodiga o'tish bosqichida namoyon bo'lmoqda. SHuning uchun kredit tizimini davlat tomonidan boshqarishning muhim vazifalaridan biri bu iqtisodiy ustunlikni oqilona tavsiflash va kredit resurslarini u yoki bu tarmoqqa jalb qilishni rag'batlantirishdan iboratdir.

3. Muomala xarajatlarini tejash funksiyasi.

Kredit vujudga kelish davridan boshlab haqiqiy pullarni (oltin, kumush) kredit pullari i veksellar, banknotalar, cheklar bilan almashinishini ta'minlab kelgan. Lekin, oltinning monetar ahamiyati yo'qolishi tufayli kredit shu funksiyasi yordamida naqd pulsiz hisob-kitoblarni rivojlantirib, hisob-kitoblarning tezligini va kam xarajatliligini ta'minlamoqda. Kapitalning muomalada bo'lish vaqtining iqtisod qilinishi uning ishlab chiqarishda bo'lish vaqtini oshiradi va bu ishlab chiqarishni kengaytirishga, foydaning ortishiga olib keladi.

Bu funksiyaning amalga oshishi kreditning iqtisodiy mohiyatidan kelib chiqadi. Uning manbai sanoat va savdo kapitalining doiraviy aylanishi jarayonida vaqtincha bo'shagan moliyaviy mablag'lar hisoblanadi. Xo'jalik sub'ektlari pul mablag'larining kelib tushishi va

ishlatilishi o`rtasidagi vaqt bo`yicha farq faqatgina ortiqcha mablag`lar hajmini emas, balki moliyaviy mablag`larning yetishmovchiligini ham aniqlab beradi. SHuning uchun korxona va tashkilotlarning o`z aylanma mablag`larining vaqtinchalik yetishmovchiligini to`ldirish uchun ssudalar berish keng tarqalib borgan.

4. Kapital to`planishining jadallashuvi va konsentrsiyalashuvi funksiyasi.

Kapital to`planishi jarayoni iqtisodiy rivojlanishning barqarorlashuvi va xo`jalik yurituvchi har bir sub'ektning maqsadga erishishining muhim sharti hisoblanadi. Bu masalani hal qilishga va ishlab chiqarishni kengaytirishga, shuning bilan birga qo`shimcha foyda olishga qarz mablag`laridan foydalanish yordam beradi. SHuni ta`kidlab o`tish zarurki, iqtisodiy inqiroz davrida bu resurslarning qimmatligi ko`pchilik xo`jalik faoliyati jabxalarida kapital to`planishini jadallashtirish masalasini xal qilishda to`squinlik qiladi. SHunga qaramasdan, ko`rib chiqilayotgan funksiya hozirgi sharoitda rejali iqtisodiyot davrida rivojlanmagan va mablag`lar bilan ta`minlanmagan faoliyat jabhalarini moliyaviy mablag`lar bilan ta`minlanish jarayonini sezilarli tezlashtirdi.

5. Muomalaga to`lov vositalarini chiqarish funksiyasi.

Bu funksiyaning amalga oshishi jarayonida kredit faqatgina tovar emas, balki pul muomalasining jadallashuviga, undan naqd pullarni siqib chiqarib, to`lovlar aylanishining tezlashuviga ijobiy ta`sir ko`rsatadi. Kredit tufayli pul muomalasi doirasiga veksel, chek, kredit kartochkalari kabi vositalar kiritilib, naqd pulli hisob-kitoblarni naqdsiz operatsiyalar bilan almashtiradi. Bu esa ichki va xalqaro bozordagi iqtisodiy munosabatlar mexanizmini osonlashtiradi va tezlashtiradi. Bu masalani hal etishda tijorat krediti zamonaviy tovar almashinuvining kerakli elementi sifatida muhim o`rin tutadi.

Fan-texnika taraqqiyotining jadallashuvi ham kredit orqali samaraliroq amalga oshirilishi mumkin. Urushdan keyingi yillarda fan-texnika taraqqiyoti har bir mamlakat yoki alohida xo`jalik yurituvchi sub'ekt iqtisodiy rivojining hal qiluvchi omiliga aylangan. Kreditning fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirishdagi o`rnini fan-texnika tashkilotlarining faoliyatini moliyalashtirish jarayoni orqali kuzatish mumkin. Ilmiy tadqiqot ishlarini olib boruvchi markazlarning normal ishlab turishini ta`minlash uchun ham, ular faoliyatini moliyalashtirishda kredit resurslari ishlatilishi mumkin. SHuningdek, kredit innovatsion jarayonlarda ishlab chiqarishga ilmiy tadqiqot natijalarini joriy qilish va ishlab chiqarish texnologiyasini o`zgartirish bilan bog`liq xarajatlarni moliyalashtirish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur.

Albatta, korxonalarining mablag`lari yetarli bo`lgani holda, bu turdagi xarajatlar dastlab korxonalarining o`z mablag`lari hisobi-dan moliyalashtiriladi, shuningdek, o`z mablag`lari yetarli bo`lmagan sharoitda bankning maqsadli o`rta va uzoq muddatli ssudalari hiso-bidan ham amalga oshirilishi mumkin.

Kreditni ishlatish samaradorligi uni pozitiv ravishda ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishga va mahsulot ishlab chiqarish hajmining o`sishiga ta`siri bilan aniqlanadi.

Ko`rib o`tganimizdek, kredit xo`jalik sub'ektlari tomonidan ishlab chiqarish va sotuv, to`lov jarayonidagi mablag`lar yetishmovchiligini qoplash uchun olinadi. Agar korxona ishlab chiqarish zahiralari sotib olish uchun kredit mablag`lardan foydalanadigan bo`lsa, shu kredit fondlar aylanishining barcha bosqichlarini bosib o`tadi va miqdoriy jihatdan o`sgan holda aylanishdan chiqariladi va qarz beruvchiga qaytariladi.

Kredit resurslaridan korxona quyidagi hollarda foydalanishi mumkin:

1. Korxona kreditni xarajatlarning biron turini amalga oshirish uchun, masalan, xom ashyo, materiallar sotib olish, tugallanmagan ishlab chiqarish uchun yoki jo`natilgan tovarlar uchun olishi mumkin.

1. Korxona aylanma fondlarning doiraviy aylanishining barcha bosqichlariga kreditni jalb qilishi mumkin. Masalan, ishlab chiqarish zahiralari sotib olishga, tugallanmagan ishlab chiqarishga, tayyor mahsulotga, jo`natilgan tovarlarga va boshqa xarajatlar uchun.

3. Korxonani kompleks kreditlashtirish zarur bo`lganda amalga oshiriladi.

Kredit munosabatlari iqtisodiyotda mavjud aniq uslubiy asoslarga tayanadi. Uning asosiy elementlari bo`lgan ssuda kapitali bozori operatsiyalari ma`lum tamoyillar asosida olib boriladi.

Bu tamoyillar kredit rivojlanishining birinchi bosqichida ko'zga tashlangan edi, keyinchalik esa ular umumdavlat va xalqaro kredit qonunchiligida yaqqol o'z aksini topdi. Iqtisodiy tushuncha sifatida kredit bir necha tamoyillarga ega. Bular kreditning qaytib berilishi, kreditning muddatliligi, kreditning ta'minlanganligi, maqsadliligi va to'lovlilik tamoyillaridir. Quyida biz har bir tamoyilning mazmunini qisqacha tariflab o'tamiz.

1. Kreditning qaytib berish tamoyili

Bu tamoyil kreditning mustaqil iqtisodiy tushuncha ekanligining shartidir. Qaytib berishlik kreditning umumiy belgisi hisoblanadi. Qaytib berishlik o'z-o'zidan vujudga kelmaydi: u moddiy jarayonlarga, qiymat aylanishining tugashiga asoslanadi. Ammo aylanma harakatining tugashi i bu qaytarib berishi emas, faqat qaytarib berish uchun zamin tayyorlashidir. Kreditni qaytarish aylanmadan chiqqan mablag'lar qarz oluvchiga pul mablag'larini qaytarish imkoniyatini bergan taqdirda qaytariladi. Qaytarib berishlik ikkiyoqlama jarayonni ifoda etadi, u kreditor uchun ham, qarz oluvchi uchun ham bir xil darajada muhimdir.

Qiymatning qaytuvchi harakatining huquqiy tomoni ham muhimdir. Muayyan bir muddatga beriladigan qiymatga egalik huquqi kreditoridan qarz oluvchiga o'tmaydi.

Qarzga beriladigan qiymat faqat muayyan bir muddatgagina o'z egasi qo'ldan uzoqlashadi, lekin egasini o'zgartirmaydi.

Bo'sh turgan resurslarni akkumulyasiya qiluvchi banklar bu resurslardan xususiy resurslari sifatida foydalana olmaydi. Bank qarzga beruvchi mablag'ning egasi bo'lib, korxona, tashkilot, alohida shaxslar hisoblanadi.

Qaytarib berish muayyan shartnomada o'zining o'rnini topadi.

Qaytarib berishlik ob'ektiv belgi hisoblanadi. Kreditni qaytarib beruvchi tomon uni boshqa iqtisodiy kategoriyalardan, shu jumladan, moliyadan farq qilish imkoniyatini beradi.

Kreditdan samarali foydalanish asosidagi qaytarib berishlik i butun bank faoliyatining markaziy punkti hisoblanadi. Kreditning bu tamoyili o'z amaliyot aksini kredit va undan foydalanganlik uchun foiz summasini kredit bergan muassasa hisobiga ko'chirish yo'li bilan to'lanadi, SHu yo'l bilan banklar kredit resurslarining qayta tiklanishini ta'minlaydilar. Bizning amaliyotimizda markazlashgan rejali iqtisodiyot sharoitida kreditlashning «qaytarilmaydigan ssuda» degan norasmiy tushunchasi bor edi. Kreditlashning bu shakli xalq xo'jaligining ko'p tarmoqlarida, ayniqsa qishloq xo'jaligi sohasida keng tarqalgan edi. Kredit davlat banki tomonidan qarz oluvchining moliyaviy ahvolini hisobga olmagan holda berilar edi. O'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, qaytarilmaydigan ssudalar budjet subsidiyasining qo'shimcha shakli sifatida namoyon bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida «qaytarilmas kredit» tushunchasi bozor iqtisodi tamoyillariga yod bo'lib bunday kreditning amaliyotda bo'lishi iqtisod uchun juda xavfli hisoblanadi.

2. Kreditning muddatliligi.

Bu tamoyil kredit beruvchidan olingan kreditni o'z vaqtida qaytarib berish muddatini, ya'ni kreditning qanday muddatga berilganligi bilan tavsiflanadi. Bunda shu muddatlilik tamoyiliga ko'ra, kredit uzoq va qisqa muddatli kreditlarga bo'linadi.

Kreditning muddatlilik tamoyili qarzдор uchun qulay bo'lgan har qanday vaqtda emas, balki kredit bitimida ko'rsatilgan malum muddatda kreditning qaytarilishi zarur ekanligini bildiradi. Kreditning muddatliligi har ikkala tomon, kreditor va qarz oluvchi uchun muhimdir. Agar kreditor qarzni foizi bilan o'z vaqtida qaytib olsa, uni egasiga o'z vaqtida qaytarish yoki yana kreditga berish imkoniyatiga ega bo'ladi. Qarz oluvchi kreditni samarali ishlatib, uni o'z vaqtida kreditorga qaytarish va shu bilan shartnomadagi jazo choralaridan qutilishidan manfaatdor. Kreditning muddati bo'yicha kredit shartnomada ko'rsatilgan shartlarning buzilishi natijasida qarz beruvchi qarz oluvchiga iqtisodiy choralar (jarimalar shaklida, kredit bo'yicha foiz darajasini oshirish, kreditning muddatini qisqartirish va boshqalar)ni qo'llashi mumkin. Bu choralar ham yordam bermagan hollarda qarz beruvchi moliyaviy talablarni xo'jalik sudi orqali undirib olishi mumkin. Kreditning muddatliligi kelib tushuvchi boyliklarni tejimli va qayta ishlatish, ishlab chiqarilgan mahsulotni jo'natish, tovarlarni sotish muddatlariga va pirovard natijada aylanma fondlarining doiraviy aylanishining tezligiga bog'liqdir.

3. Kreditning ta'minlanganlik tamoyili.

Bu tamoyil yordamida iqtisodiyotning rivojlanishida qiymat va moddiy ishlab chiqarish o'rtasida bo'lishi zarur bo'lgan proporsiyalarning bir me'yorda bo'lishi rag'batlantiriladi. Bu tamoyilning asosiy mohiyati shundaki, bunda xo'jalik aylanmasida ishtirok etuvchi bank mablag'larining har bir so'miga muayyan moddiy boyliklarning bir so'mi qaramaqarshi turishi kerak. Banklar tomonidan xalq xo'jaligi tarmoqlariga berilgan kreditlar to'liq tovar moddiy boyliklari va malum xarajatlar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. Tarmoqlarga ta'minlanmagan kreditlarning berilishi bank kreditlarining bankka qaytib kelmasligiga asos hisoblanadi. Bu o'z navbatida, bankning likvidligiga va pul muomalasiga katta tasir ko'rsatadi. SHuning uchun ham, bozor iqtisodiyoti sharoitida banklar tomonidan beriladigan kreditlarning tovar moddiy boyliklar va xarajatlar bilan ta'minlangan bo'lishiga muhim e'tibor berilmoqda. Hozirgi sharoitda bu jarayonning amalga oshirilishini quyidagicha ifodalash mumkin.

Kredit olayotgan korxona bankka tovar yoki tovar hujjatlarini, boshqa biror shakldagi mulkni garovga qo'yadi. Agarda bank bergan kredit qarz oluvchi tomonidan o'z vaqtida bankka qaytarilmasa, bank tovarni sotish hisobidan qarz o'rnini qoplash huquqiga ega bo'ladi. Ba'zida kredit warrant asosida ham berilishi mumkin. (Varrant i'garov uchun xizmat qiluvchi hujjat). Bunda kreditor berayotgan krediti tovar - moddiy boyliklar bilan ta'minlanganligiga ishonch hosil qilishi kerak.

Bank ssudalarining tovar - moddiy boyliklar bilan to'liq ta'minlanganligi pul muomalasining barqarorligini ta'minlaydi, chunki bank aylanmasidagi pullar naqd pulga va aksincha transformasiyalanib turadi.

Xulosa qilib aytganda, kreditning ta'minlanganlik tamoyili qarz oluvchi o'ziga olgan majburiyatlarni buzish sharoitida qarz beruvchining mulkdorlik manfaatlarini himoya qilishni ta'minlaydi va o'zining amaliy aksini kreditni biror garov yoki moliyaviy kafolat asosida berishda topadi. Bu umumiy iqtisodiy barqarorlik davrida, ayniqsa, muhimdir.

4. To'lovlilik tamoyili.

Bu tamoyil aylanma fondlarining doiraviy aylanishini, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonini ta'minlovchi to'lov resurslari summasini avanslashtirish zaruriyatidan kelib chiqadi.

Bu tamoyilga asosan korxonalar foydalanilgan qarz mablag'lari uchun kreditorga foiz shaklida to'lovni o'tkazadilar. Kreditning to'lash uni to'liq summada o'z egasiga qaytarilishinigina emas, shu bilan kredit uchun foiz shaklidagi to'lov bilan qaytarilishini ifodalaydi. Demak, kreditor o'z mablag'larini hech vaqt o'z hajmida qaytarib olish sharti bilan bermaydi, bunda u mablag'ni qarzga berganligi uchun muayyan to'lov talab qiladi (foizsiz imtiyozli kreditlar bundan mustasno).

Kreditning to'lovi nafaqat banklar xo'jalik hisobi maqomiga, shu bilan birga korxonalarni bevosita foydasi bilan bog'liq xo'jalik hisobiga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi.

Kredit uchun haq to'lashning iqtisodiy mohiyati qarz beruvchi va qarz oluvchi o'rtasidagi qo'shimcha olingan foydaning taqsimlanishini qayd qilishda namoyon bo'ladi. Ko'rib chiqilayotgan tamoyilning amaliyotda uchta asosiy funksiyasini bajaruvchi bank foizi me'yorini o'rnatish jarayonida namoyon bo'ladi:

- i' yuridik shaxslar foydasining va jismoniy shaxslar daromadining taqsimlanishi;

- i' ishlab chiqarishni tartibga solish va ssuda kapitalining taqsimlanishi orqali tarmoq, tarmoqlararo va xalqaro miqyosda aylanishi;

- i' iqtisodiyot rivojining inqirozli bosqichida bank mijozlarining pul mablag'larini inflyasiyadan himoyalash va boshqalar.

Ssuda foizining stavkasi ssuda kapitalidan olingan yillik daromad summasining berilgan kredit summasiga nisbati bilan aniqlanib, kredit resurslarining bahosi sifatida namoyon bo'ladi.

Boshqa tovarlar bahosi belgilanishining an'anaviy mexanizmidan farqli o'laroq, kreditning bahosi, ssuda kapitali bozoridagi talab va taklifning nisbatini o'zida aks ettiradi va u bir qator omillarga bog'liq bo'ladi:

• bozor iqtisodiyotining davriy rivojlanishi (inqiroz davrida ssuda foizi o'sadi va aksincha, yuksalish davrida esa pasayadi);

• inflyasiya jarayoni sur'atlari (amaliyotda ssuda foizining inflyasiya o'sish sur'atlaridan orqada qolishi uchrashi mumkin);

• tijorat banklarni kreditlash jarayonini amalga oshiruvchi Markaziy bank orqali davlat kreditini tartibga solishning samaradorligi;

• xalqaro kredit bozoridagi holat (masalan, biror mamlakatda kredit bo'yicha foiz stavkasining oshishi shu mamlakatga chet el kapitalining oqib kelishiga olib keladi va bu milliy bozorlar holatiga tasir ko'rsatadi.);

• jismoniy va huquqiy shaxslar pul jamg'armalarining dinamikasi (ularning hajmi qisqargan holda ssuda foizi o'sadi);

• potentsial qarz oluvchilarning kredit resurslariga bo'lgan ehtiyojini aniqlab beruvchi ishlab chiqarish dinamikasi;

• ishlab chiqarishning mavsumiyligi (chet el amaliyotida banklar mavsum davrida kreditlar bo'yicha foizlarni oshiradilar);

• davlat tomonidan beriladigan kredit miqdori bilan davlatning ichki qarzlar o'rtasidagi nisbat (ssuda foizi ichki davlat qarzlar o'sishi bilan birga o'sib boradi).

5. Kreditning maqsadli bo'lishi.

Bu tamoyilning mohiyati shundaki, qarz oluvchi tomonidan olingan kreditlar aniq bir maqsadni amalga oshirishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Kreditning qaysi maqsadga yo'naltirilganligi, masalan, tovar moddiy boyliklar sotib olishga yoki biror ishlab chiqarish xarajatlarini qoplashga va hokazo aniq biror ob'ektga maqsadli yo'naltirilganligi korxona bilan bank o'rtasida tuziladigan kredit shartnomada ko'rsatilgan bo'ladi. Korxona olgan kreditni faqatgina kredit shartnomada ko'rsatilgan ishni bajarishga sarflashi kerak . Bunda kredit muayyan, aniq ob'ektga: ishlab chiqarish xarajatlariga, ishlab chiqarish zaxiralariga, tayyor mahsulotga, jo'natilgan tovarlarga, hisob-kitob hujjatlariga va hokazolarga beriladi.

Kreditni rejaning bajarilganligiga qarab berish.

Bu tamoyilning mohiyati shunda ediki, bank kreditlarining umumiy hajmi va shakllari banklarning kredit rejalarini asosida o'rnatiladi edi. Bunda korxona va tashkilotlarga beriladigan kreditlar ularning ishlab chiqarish rejalarini bajarishlariga qarab beriladi edi. Undan tashqari, kredit hajmi bo'yicha muayyan reja tuziladi va shu rejaga asosan kredit berilishi, uning hajmi va shakli belgiladi va bu bank tomonidan boshqariladi edi.

Bu tamoyilga asosan, kredit rejasida ko'zda tutilgan bank ssudalari kvartal yoki oyiga bir marta emas, balki tovar-moddiy boyliklarini yaratish jarayoniga va ularni ishlab chiqarish maqsadlariga sarflash yoki sotishning ma'lum bosqichlarida bank tomonidan o'rnatilgan miqdorda beriladi edi.

2. Differensiyalashtirish (kreditlashda har xil yondashish) tamoyili.

Bu tamoyil ijtimoiy zaruriy me'yorlarga mos holda ishlab chiqarish va mahsulotni realizatsiya qilish asosida korxona va tashkilotlarning qanday moliyaviy natijaga erishganligiga qarab belgilangan. Xo'jalik faoliyatining natijalariga qarab korxonalar «yaxshi ishlaydigan» va «yomon ishlaydigan» korxonalarga bo'lib kreditlangan. Bu tamoyilga asosan ijobiy moliyaviy natijalarga erishgan korxona va tashkilotlarga kreditlash jarayonida malum yengilliklar berilgan. Korxonalarda moliyaviy qiyinchiliklar bo'lganda ishchilarga ish haqi to'lash uchun yoki boshqa to'lovlarni amalga oshirish uchun kreditlar berilgan. Undan tashqari, yaxshi ishlaydigan korxonalarga yengil sharoitda kreditlar berilgan, masalan, berilgan kreditning foiz stavkasi kamaytirilgan, korxona uchun zarur bo'lganda kreditning muddati uzaytirilgan va hokazo.

Agar korxona ishlab chiqarish rejasini bajarmasa yoki bankdan olingan kreditlar bo'yicha o'z majburiyatlarini vaqtida amalga oshirmasa, bunday korxona yomon ishlovchi korxonalar qatoriga kiritilgan va bank tomonidan bunday korxonalarga iqtisodiy choralar qo'llanilgan. yomon ishlovchi korxonalarga kreditlashda bank qattiq yondashgan, ya'ni kreditlarni juda qisqa muddatga, yuqori foiz stavkalari bo'yicha bergan. Ba'zida bank oldindan bergan kreditlarini

muddatidan ilgari undirib olgan, korxona yuqori tashkilotining kafolati asosida kredit bergan yoki bazi hollarda kredit berishni umuman to`xtatib qo`ygan.

2. Tijorat banklari kreditlarini tasniflash tizimi va mezonlari.

Banklar va ular tomonidan beriladigan kreditlar respublika iqtisodiyotida muhim o`rin tutishi o`z-o`zidan aniq. Ayniqsa, bugungi global moliyaviy inqiroz sharoitida banklarning iqtisodiyotdagi ahamiyati yanada oshadi. Tijorat banklari jismoniy va yuridik shaxslar moddiy i texnika bazasini tuzish, tiklash va ko`paytirish manbai bo`lib xizmat qiladi. Korxona va tashkilotlarga o`z mablag`lari bilan cheklanib qolmaslik, yangi pul mablag`larini xo`jalik oborotiga kiritish imkonini beradi va shu bilan ishlab chiqarishning o`sishi hamda jadallashishi uchun zarur iqtisodiy zamin yaratadi. Kreditlashni tashkil etish kredit munosabatlarining ikki sub'ekti i bank(qarz beruvchi) va qarz oluvchining o`zaro majburiyatlari hamda manfaatlarini uyg`unlashtirishni nazarda tutadi.

Tijorat banklari tomonidan kredit operatsiyalarini to`la i to`kis olib borish ular tomonidan kreditni tasniflash qay darajada tuzilganligiga bog`liq. Har bir bank siyosiy, iqtisodiy, tashkiliy va boshqa jihatlarini hisobga olgan holda o`z kredit siyosatini shakllantirishi bank kreditlash faoliyatining muhim jihati hisoblanadi.

Aktivlarni tasniflash tizimi barcha turdagi kreditlar, jumladan, bank kafolatlari, kredit liniyalari, banklararo kreditlar, overdraftlar uchun qo`llaniladi va balansdan tashqari majburiyatlarni tasniflashni ko`zda tutadi.

Mazkur tizim boshqa bank aktivlari, jumladan, investisiyalar, qimmatli qog`ozlar oldi-sotdisi, olishga doir hisobvaraqlar, uchinchi shaxslar nomidan majburiyatlarni bajarish bo`yicha sotib olingan talab qilish huquqi va qaytarilmaslik xatari mavjud bo`lgan boshqa aktivlarni baholashda ham qo`llanilishi mumkin.

Kreditni tasniflash tizimi quyidagi mezonlar bo`yicha qarzorni baholashdan boshlanadi:

- tendensiya va tarmoq (iqtisodiy sektor) kelajagi;
- qarzdorning moliyaviy ahvoli;
- mijozning kredit tarixi;
- muayyan loyihaning iqtisodiy jihatdan asoslanishi (nizomi);
- korxonadagi rahbarlik va boshqarish sifati (agar kredit korxonaga berilsa).

Kredit taxlili va aktivlar tasnifi natijalari qarz oluvchining moliyaviy ahvoli, kreditlarni to`lash tarixi va tegishli tarzda rasmiylashtirilgan garovning mavjudligi kabi omillarga bog`liq. Ushbu omillarni kredit portfeli va tijorat bankining boshqa aktivlariga xos bo`lgan tavakkalchilikni aniqlash va baholashda qo`llash juda muhimdir.

Bank aktivlari quyidagi tartibda va toifalar bo`yicha tasniflanadi:

Yaxshi. Ushbu aktivlar bo`yicha qarzlarning o`z muddatida to`lanishi shubha tug`dirmaydi. Qarz oluvchi moliyaviy jihatdan barqaror hisoblanadi, u yetarli miqdorda kapitalga, yuqori daromadlilik darajasiga hamda barcha mavjud majburiyatlar, jumladan, mazkur qarzni qondirish uchun yetarli pul mablag`lari oqimiga ega. Qarz oluvchi amalda bajariladigan, jumladan, bozorda raqobatlasha olish, yaxshi mahsulot ishlab chiqarishga doir strategik rejani taqdim etadi va o`z mahsulotlari uchun marketing rejasiga ega bo`ladi. Qarzdor mavqeini baholash kreditga doir to`lovlar tarixi, garovning bozorda sotilishi (mulk va ko`chmas mulk, kafolat) kabi omillarni o`z ichiga qamrab oladi. Garov ñyaxshi ta'minlanganò kredit mezonlariga mos keladi. Garov amaldagi qonunchilikka muvofiq notarial jihatdan puxta tasdiqlangan bo`lishi va zarur hollarda tegishli mulk bitimini ro`yxatdan o`tkazish uchun belgilangan tartibda ro`yxatga olinishi lozim. Bank kredit qaytarilmagan holda cheklovlersiz va erkin ravishda uni garov hisobidan undirib olishi mumkin. Ta'minotga doir taqdim etilayotgan barcha hujjatlar qonunchilikda belgilangan tartibda rasmiylashtirilishi kerak.

ñYAxshiò deb tasniflangan kreditlarda ular qaytarilmasligi alomatlari bo`lmaydi. Foizlar muddati o`tgan ssudalar ñYAxshiò deb tasniflanishi mumkin emas.

Standart. Standart toifaga kiritilgan aktivlar berilishida ikkilamchi to`lov manbasi (kafolat yoki garov bilan) puxta ta'minlangan bo`lishi lozim. Umuman olganda qarzdorning moliyaviy ahvoli barqaror hisoblanadi, lekin ayrim noqulay vaziyatlar yoki yo`nalishlar mavjud

bo`lib, agarda ular bartaraf etilmasa, qarzdorning kreditni o`z vaqtida to`lash qobiliyatiga nisbatan shubha uyg`onishi mumkin. SHu bilan birga moliyaviy ahvol yoki garovni nazorat qilish borasida bir muncha shubhalar bo`lishi mumkin. Kredit hujjatlarida yetarlicha axborot bo`lmagan yoki garov ta`minoti bo`yicha hujjatlari bo`lmagan  $\tilde{Y}A$ xshio kreditlar (aktivlar) ham  $\tilde{n}S$ tandarto aktivlar sifatida tasniflanishi mumkin. To`lanmagan foizlari yangi kreditga aylanadigan (kapitallashtiriladigan) kredit hech bo`lmaganda  $\tilde{n}S$ tandarto aktiv sifatida tasniflanishi zarur. Qisqa vaqt mobaynida (30 kungacha) kechiktirilgan kreditlar  $\tilde{n}S$ tandarto aktivlar sifatida ko`rib chiqilishi mumkin. Biroq, kechiktirish maqomi aktivning tasniflanishini baholashda asosiy omil bo`lmasligi lozim.  $\tilde{n}S$ tandarto sifatida tasniflangan aktivlar bo`yicha bank qaytarilmagan asosiy qarz summasining 10 foizi miqdorida zahiralar tuzishi shart.

Substandart. Substandart aktivlar aniq ifodalangan kamchiliklar belgilariga ega bo`lib, bu holat dastlabki shartnomaga muvofiq qarz qaytarilishi shartlarining bajarilishiga shubha uyg`otadi. $\tilde{n}S$ ubstandarto sifatida tasniflangan kreditlarda qarz to`lashning dastlabki manbai qarzga xizmat ko`rsatish uchun yetarli darajada bo`lmaydi va bank qarzni qaytarish uchun qo`shimcha manbalar (garovdan undirish va qarzdor tomonidan ssuda qaytarilmaganda garovni sotish, asosiy fondlarni sotish singari manbalar)ni qidirishga majbur bo`ladi. SHuningdek, substandart aktivlar ishonchli joriy moliyaviy ahvol va qarz oluvchining to`lov qobiliyati bilan himoyalalmagan. Substandart aktivlar odatdagiga nisbatan qoniqarli joriy moliyaviy axborotning yo`qligi yoki garov hujjatlarining yetarli emasligi bilan bog`liq bo`lgan tavakkalchilik darajasi ancha yuqori bo`lgan kreditlarni ifodalaydi. Ular bo`yicha foizlar yoki asosiy qarz 30 kundan ortiq muddat davomida kechiktirilgan ta`minlanmagan kreditlar, hech bo`lmaganda, substandart sifatida tasniflanishi zarur, shuningdek, 90 kundan ortiq muddat davomida kechiktirilgan ta`minlangan kreditlar ham substandart sifatida tasniflanishi lozim.

SHuningdek, quyidagi muammo yoki xususiyatlardan kamida bittasi mavjud bo`lsa, aktiv to`lov muddati to`lgunicha substandart sifatida tasniflanishi mumkin:

a) asosiy to`lov manbalari qarz to`lash uchun yetarli emas, bank garovga qo`yilgan mulkni sotish, qarz oluvchining boshqa asosiy mablag`larini sotish, to`lanishi lozim bo`lgan boshqa qarz mablag`larini qayta moliyalash kabilarni hisobga olgan holda qo`shimcha to`lov manbalarini topishi kerak;

b) qarz oluvchining joriy moliyaviy holati yoki uning pul mablag`larining mo`ljallanayotgan oqimi majburiyatlarni qoplash uchun yetarli bo`lmagan hollarda;

v) qarz oluvchi kapitali ko`p darajada yetarli bo`lmagan korxona bo`lgani taqdirda;

g) ushbu sohaga nisbatan yo`nalish va istiqbollar barqaror bo`lmagan holda;

d) kreditlar (aktivlar), garov qiymati asosiy qarz summasidan oshmagan, hech bo`lmaganda asosiy qarzning to`lanmagan summasiga teng bo`lgan holda (ya'ni kredit qisman ta`minlangan bo`lsa).

$\tilde{n}S$ ubstandarto sifatida tasniflangan aktivlar bo`yicha bank asosiy qarzning to`lanmagan summasining 25 foiziga teng bo`lgan zahiralarini shakllantirishi lozim.

SHubhali kreditlar substandart deb tasniflanuvchi kreditlarga xos barcha xususiyatlarga ega bo`lib, mavjud sharoitda aktivlarning to`liq qaytarilishini shubha ostiga qo`yadi va kam ishonchli qilib qo`yadi. Ziyon ko`rish ehtimoli yuqori bo`lgan, lekin ayrim ijobiy omillari mavjud bo`lgan ushbu kreditlar sharoit oydinlashguncha $\tilde{n}sh$ ubhali deb tasniflanmaydi.

Quyidagi omillarning kamida bittasi mavjud bo`lsa, aktiv $\tilde{n}sh$ ubhali deb, tasniflanishi mumkin:

a) $\tilde{n}S$ ubstandarto aktivlarning hech bo`lmaganda bironta ko`rsatkichi, shuningdek, ayrim boshqa noqulay tavsiflari mavjud bo`lsa (bozorda oson sotiluvchan garovning mavjudligi yoki qarz oluvchining bankrot deb e`lon qilinishi);

b) yaqin kelajakda aktivning qisman to`lanishi ehtimolining mavjudligi, shuningdek, ushbu paytda aktivning $\tilde{n}u$ midsize deb tasniflanishi zarur emasligi.

Aktivni $\tilde{n}u$ midsize deb tasniflashga imkon beruvchi muhim omillarga quyidagilar kiradi:

- bank aktivlar bo`yicha ayrim to`lov turlarini, yoki, hech bo`lmaganda qisman to`lovlarni oladi;

- bank garovni undirib olish bo'yicha huquqiy xatti-harakatlarni qo'llay boshlaydi va ta'minot sotuvini o'z vaqtida amalga oshiradi (90 kun ichida);

- qarzidor tomonidan keyinchalik aktivni to'liq ta'minlaydigan qo'shimcha ta'minotni taqdim etish harakatlarining amalda boshlanishi.

Shubhali deb tasniflangan aktivlar bo'yicha bank asosiy qarz to'lanmagan summasining 50 foizi miqdorida zaxirani tashkil etishi shart.

Umidsiz deb tasniflangan kreditlarga qaytarilmaydigan kreditlar kiradi. Qiymati juda pastligi tufayli bank aktivlari sifatida ularning hisobini yuritish maqsadga muvofiq emas, deb hisoblanadi. Bunday tasniflash kreditlarda umuman hech qanday tugatiladigan qiymat mavjud emasligini bildirmaydi. Lekin banklar o'z balanslarida bu qarzidorlikning hisobini yuritishni davom ettirishlari maqsadga muvofiq emas. Bank garovga olingan mulkni sotish orqali bunday qarzidorlikni bartaraf etish choralari ko'rish yoki uni qaytarish choralari qo'llashi kerak.

Kamida 180 kunga kechiktirilgan aktiv umidsiz deb tasniflanadi.

Yuqorida ko'rsatilgan davr mobaynida aktiv qaytarilmasligidan dalolat beruvchi faktlar va belgilar mavjud bo'lsa ushbu aktiv umidsiz, deb tasniflanishi mumkin.

Umidsiz deb tasniflangan aktivlar bo'yicha bank asosiy qarzni to'lanmagan summasining 100 foizi miqdorida zaxiralar yaratishi kerak.

Aktiv bir toifadan ortiq toifalarda tasniflanishi mumkin. Summasi asosiy qarzni to'lanmagan qiymatidan kam bo'lgan ta'minotga ega muammoli ssuda quyidagicha tasniflanishi mumkin (ta'minot sotilishi mumkin bo'lgan bozor mavjudligi sharti bilan):

- qiymati ta'minotning bozor qiymatiga teng bo'lgan asosiy qarz qismi odatda substandart sifatida tasniflanadi;

- asosiy qarzni qolgan qismi ushbu bo'limda ko'rsatilgan tartibda shubhali yoki umidsiz kabi tasniflanadi.

Kreditlar (aktivlar) bo'yicha ta'minot hisoblanuvchi garov bank tomonidan kreditni qoplashning asosiy manbai deb, hisoblanmasligi kerak. Garov kreditni to'lashning ikkilamchi manbai deb qaralishi kerak.

Xavfsiz va ishonchli faoliyat andozalariga muvofiq tarzda banklar garovni kreditni qaytarishning vositasi, deb hisoblagan holda kredit bermasliklari kerak. Kredit (aktiv) bo'yicha olingan garovni tahlil qilishda bank garovning likvidligini e'tiborga olishi kerak. Shunga muvofiq ravishda bank asosiy qarz summalarining qaytarilishini va garovni sotishdan olinadigan foizlarni baholashi kerak. Aktivlarning likvidli ta'minotiga quyidagilar kiradi:

- O'zbekiston Respublikasi Hukumatining so'zsiz kafolati;

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining so'zsiz kafolati;

- banklarda ochilgan hisobvaraqlarda erkin ayirboshlanadigan valyuta shaklidagi garov;

- O'zbekiston Respublikasi Hukumati qimmatli qog'ozlari shaklidagi garov;

- andozaviy qimmatbaho metallar shaklidagi, ya'ni oltin va kumush quyimalari shaklidagi garov.

Quyidagi aktivlarni likvid ta'minotga ega, deb hisoblanadi:

- ko'chmas mulk, o'zlashtirilgan va o'zlashtirilmagan yerga bo'lgan huquqni hisobga olgan holda;

- ko'chma mulk;

- xususiy korxonalarning qimmatli qog'ozlari;

- yuridik va xususiy shaxslarning kafolatlari. Restrukturizatsiya qilingan kredit bu muayyan muammolari bor aktivdir. Restrukturizatsiya qilingan kredit, deb tasniflashda quyidagi omillar ko'rib chiqilishi kerak:

- restrukturizatsiya qilishning asoslari yoki sabablari;

- bir qarz oluvchiga qarzni qaytarish muddatining necha marta uzaytirilganligi;

- dastlabki bitim shartlariga nisbatan yangi kredit bitimida keltirilgan kredit shartlaridagi o'ziga xos o'zgaritirishlar. Xususan, foiz stavkasining bozor stavkasi darajasidan pasayishi yoki ssudani qaytarish muddatining uzaytirilishi restrukturizatsiya qilingan ssudani tasniflash va tahlil

qilish jarayonida tahlil va ko`rib chiqish uchun muhim sabab hisoblanishi mumkin. SHu bilan birgalikda ularni tasniflashda quyidagi omillar ko`rib chiqiladi:

- agar resturturizasiya qilingan kredit bo'yicha almashuvchi yoki qo'shimcha qarzdor dastlabki qarzdorning sho'ba korxonasi yoki unga qaram korxona bo'lsa (ya'ni boshqa sho'ba korxona ham ayni shu asosiy korxonaga tegishli bo'lsa), bunda kreditlarning dastlabki tasnivi o'zgarmasligi kerak. Qarz beruvchi tomonidan qarzga doir xizmat ko'rsatilishi tasniflashning o'zgartirilishini talab etuvchi hollar bundan mustasno;

- aktivlarning noqulay tasniflanishi almashuvchi yoki qo`shimcha qarzdor ta'minot sifatida likvid aktivlarni taklif etishga layoqatli bo`lgan taqdirda o`zgarishi mumkin. Agar yangi qarzdor asosiy qarzning barcha to`lanmagan summalarini yoki asosiy qarz yoki foizlarning qtsmini to`lashga layoqatli bo`lsa, bunday holda aktivning tasnifi tegishli tarzda qayta ko`rib chiqilishi mumkin. Ehtimoliy o`zgarishlarni qoplashga mo`ljallangan zahirlara likvid aktivlarning muayyan summasi ta'minot sifatida taqdim etilgan holda o`zgaritirilishi mumkin;

- agar almashuvchi yoki qo'shimcha qarzdorning dastlabki qarzdor bilan hech qanday aloqasi bo'lmasa, bunday holda ssudani tasniflash mezonlari almashuvchi yoki qo'shimcha qarzdorga nisbatan qo'llaniladi. Bu hol qarzdorning biznesni normal yuritish sharoitida aktivlarni to'lay olish layoqatiga muvofiq tarzda amalga oshiriladi.

Aktivlar tasnifi davriy ravishda qayta ko'rib chiqilishi kerak va zarur hollarda, aktivlar har bir qayta tasniflashda almashuvchi va qo'shimcha qarzdorga qarz bo'yicha xizmat ko'rsatishda qayta tasniflanishi lozim.

O'zbekistonda bozor munosabatlari qaror topishi va rivojlanishining hozirgi bosqichida vaqtincha bo'sh pul mablag'larini muddatlilik, qaytaruvchanlik hamda to'lovlilik shartlari asosida qayta taqsimlash yuzasidan kelib chiqadigan kredit munosabatlarining roli va o'rni ahamiyatli darajada o'zgardi. Bu yerda kreditning iqtisodiyotdagi o'rni va roliga emas, balki kredit munosabatlarini tashkil etish jarayoni ham sifat jihatidan ancha o'zgardi.

Mijoz va bank o`rtasida imzolangan kredit shartnomalari har ikki tomon uchun majburiy hisoblanib, ularning o`z muddatida, to`liq bajarilishi talab etiladi. Lekin, hozirgi paytda banklar kreditlarni qaytarib olishda muammolarga duch kelmoqda. Bu esa o`zi o`zidan muammolarning yanada ortishiga hamda ĩmuammoli kreditlarò yoki ĩsud jarayonidagi ssudalarò hisobvarag`ida banklarning summalari ko`payishiga, daromad keltiruvchi bank aktivlarining chetga tortilishiga olib keladi.

Bugungi kunga kelib, tijorat banklari kredit portfelining ma'lum bir qismini muammoli kreditlar tashkil etadi. Umuman, muammoli kreditlar qanday yuzaga keladi? i degan savol tug'iladi. Muammoli kreditlar quydagi hollarda yuzaga keladi:

- mijozning moliyaviy holatiga to'g'ri baho bermaganligi va chuqur tahlil etmaganligi;
- kreditlar ustidan yetarli darajada monitoring o'rnatilmaganligi;
- hujjatlarning to'liq talab qilinmaganligi;
- kredit mablag'ining biznes-rejada ko'rsatilgan maqsadlarga ishlatilmaganligi hamda mablag'ning xufyona o'zlashtirilishi;
- bank xodimlari bilan o'zaro til biriktirib, kredit mablag'lari talon-taroj qilish oqibatida yuzaga keladi.

Iqtisodiyotning tarmoqlari bo'yicha muddati o'tgan kreditlar tarkibida sanoatga berilgan kreditlar butun ko'rib o'tilayotgan davr mobaynida asosiy ulushni egallab keldi.

1ii jadval²

Muddati o'tgan kreditlarning tarmoqlar bo'yicha tuzilishi (%)

Tarmoqlar	01.01.2004	01.01.2005	01.01.2006	01.01.2007	01.01.2008	01.01.2009
Sanoat	89,61	82,45	79	76,72	78,15	75,35
Qishloq xo`jaligi	0,54	0,64	0,24	0,34	0,3	3,30

[illegible]

Transport va aloqa	0,05	10,16	15,85	17,1	14,2	10,0
Qurilish	2,18	0,47	0,3	0,3	0,3	3,23
Savdo va umumiy ovqatlanish	3,01	1,66	0,95	1,2	1,0	1,20
Kommunal xizmatlar	0	2,17	2,26	3,14	4,55	4,00
Tashqi savdo	0	1,02	1	0,8	0,9	1,20
Boshqa tarmoqlar	4,7	1,43	0,4	0,4	0,6	1,80
Jami muddati o'tgan kreditlar	100	100	100	100	100	100

Davr boshida, ya'ni 01.01.2000 yilda bu ko'rsatkich 14,15% ni tashkil etgan bo'lsa, keyingi ikki yil mobaynida ularning ulushi har yili o'rtacha 2 barobarga ortib bordi. 2004 yil boshiga muddati o'tgan kreditlar tarkibida sanoatning ulushi 89,61% ni (01.01.2000 yilga nisbatan 75,46% ga o'sdi) tashkil etdi, 01.01.2007 yilga kelib esa transport va aloqaning muddati o'tgan kreditlardagi ulushi 17,1% ga o'sdi. Savdo va umumiy ovqatlanish tarmoqlarida esa teskari holatni ko'rishimiz mumkin, ya'ni 2008 yil boshiga kelib bu ko'rsatkich 1,2% gacha tushib ketdi. 2009 yilga kelib esa, yana o'z holatiga qaytdi.

Muddati o'tgan kreditlarni hududiy jihatdan ko'rib chiqadigan bo'lsak, 2-jadval ma'lumotlaridan yaqqol ko'rinib turganidek, muddati o'tgan qarzdorlikning asosiy qismi Toshkent shahriga to'g'ri keladi.

2-jadval³

Kreditlar bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlikning viloyatlar bo'yicha tuzilishi (%)¹

Jami muddati o'tgan qarzdorlik	01.01.2004	01.01.2005	01.01.2008	01.01.2009
	100	100	100	100
Qoraqalpog'iston Res.	0,29	0,13	0,02	0,68
Andijon viloyati	2,05	0,84	0,09	0,11
Buxoro viloyati	0,10	0,10	0,05	0,89
Jizzax viloyati	0,29	0,16	0,06	0,17
Kashkadaryo viloyati	0,11	0,12	0,1	0,21
Navoi viloyati	0,20	0,31	0,23	0,50
Namangan viloyati	0,45	0,24	0,09	0,12
Samarqand viloyati	0,37	0,25	0,27	0,34
Surxondaryo viloyati	0,24	0,14	0,12	0,25
Sirdaryo viloyati	0,23	0,20	0,07	0,09
Toshkent viloyati	0,18	0,19	0,16	0,71
Farg'ona viloyati	1,60	0,93	0,28	0,59
Xorazm viloyati	0,31	0,17	0,06	0,14
Toshkent shaxri	93,59	96,21	98,4	95,2

Agar 2000 yilning boshida Toshkent shahri ulushi 45,19% ni tashkil etgan bo'lsa, 01.01.2004 yildagina bu ko'rsatkich 2 barobarga ortdi va 93,59% ga yetdi. Keyingi 4 yil davomida muddati o'tgan kreditlarning umumiy hajmidagi Toshkent shahar banklari tomonidan berilgan muddati o'tgan kreditlarning hisssasi 98,4% gacha yetdi. Respublikaning boshqa hududlariga nisbatan Andijon viloyati ajralib turibdi, ya'ni 2003 yil boshida 3,72% va bir yildan so'ng 2,05% ni tashkil etdi, 2005 yil boshida esa muddati o'tgan qarzdorlik hajmi 2003 yil yakuniga nisbatan 14,5% ga kamayidi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Statistika Boshqarmasi tomonidan tayyorlangan.

2005 yil boshiga respublikaning barcha viloyatlarini muddati o'tgan kreditlar hajmidagi ulushi 1% ga yetmaydi, ammo ta'kidlash joizki, butun respublika bo'yicha turli investision loyihalarga xorijiy valyutada berilgan kreditlar bankning bosh ofisi joylashgan hudud bo'yicha, aniqrog'i, Toshkent shahrida berilgan, deb hisobga olingan. SHu bilan bir qatorda, 01.01.2008 yil holatiga har bir hudud bo'yicha jami berilgan kreditlar hajmida muddati o'tgan kreditlarning ulushi katta farq qiladi. Agar viloyatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga Andijon viloyati (7,3%) ega bo'lsa, Toshkent shahrida bu ko'rsatkich 19,6% ni tashkil etdi, ya'ni deyarli 3 marta ko'pdir. 2001 yildan boshlab bu ko'rsatkich 0,2% dan bir yil ichida 1,8% gacha ko'paydi, ikki yildan esa 10% ni tashkil qildi. SHuningdek, ta'kidlash joizki, 2009 yil boshiga muddati o'tgan kreditlarning umumiy hajmiga nisbatan sud jarayonida bo'lgan kreditlar 12,5% ni tashkil etib, o'tgan yilning mazkur davriga nisbatan o'sish 3,1% ga yetdi.

SHunday qilib, xulosa qilish mumkinki, kreditlar bo'yicha muddati o'tgan qarzдорlikning asosiy qismi O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy bankiga, yana ham aniqroq aytadigan bo'lsak, xorijiy valyutadagi investision loyihalarni moliyalashga berilgan kreditlarga to'g'ri keladi. Mazkur kreditlarni bartaraf etish uchun ularning respublikamizda kelib chiqish sabablarini atroflicha o'rganib chiqish zarur bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida muammoli kreditlar kelib chiqishining asosiy sabablarini quyidagicha turkumladi:

- kredit oluvchining moliyaviy ko'rsatkichlarini, kredit mablag'laridan foydalanish bo'yicha biznes-rejalarni, investision loyihalarning texnik-iqtisodiy asoslanishini past darajada tahlil qilinishi;

- qarzдорning kredit mablag'laridan foydalanishi ustidan monitoringni sifatsiz olib borilishi, ya'ni qarzдорning moliyaviy holatini yomonlashishi, pul oqimlarining salbiy dinamikasi holatlarida kreditni restrukturizatsiyalash hamda kreditning statusini o'zgartirishni ham qamrab oluvchi choralarni o'z vaqtida ko'rmaslik;

- banklar hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatiga turli davlat organlarining aralashuvi;

- milliy valyuta devalvasiyasi, ya'ni xorijiy valyutadagi kreditlar bo'yicha investision davr mobaynida ayirboshlash kurslarida ortiqcha farqning paydo bo'lishi.

Kredit oluvchining moliyaviy ko'rsatkichlarini, kredit mablag'laridan foydalanish bo'yicha biznes-rejalarni, investision loyihalarning texnik-iqtisodiy asoslanishini past darajada tahlil qilinishi, avvalambor, tijorat banklarini tegishli bo'linmalarining yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlanmaganligi bilan izohlanadi. Potensial qarz oluvchining moliyaviy holatini o'rganishga, taklif etilayotgan ta'minot turlarining real bahosiga, biznes-rejalarni haqiqatda amalga oshirilishi bo'yicha marketing tadqiqotlariga, ishlab chiqarilishi rejalashtirilayotgan mahsulot yoki xizmatlarga real to'lovga qodir talabni baholashga keraklicha ahamiyat berilmayapti.

Qarzдорning kredit mablag'laridan foydalanishi ustidan monitoringni sifatsiz olib borilishi ham kredit mutaxassislarining tayyorgarlik darajasini yetarli emasligi bilan izohlanadi. Kreditning amal qilishi davrida qarzдор tomonidan qarzning tanini so'ndirish jadvaliga hamda foizlarning o'z vaqtida to'lanishiga keraklicha e'tibor berilmayapti. Bundan tashqari, biznes-reja bo'yicha ko'zda tutilgan ko'rsatkichlarning haqiqatda bajarilishi ustidan monitoring olib borilmaydi.

Banklar hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatiga turli davlat organlarining aralashuvi qator me'yorlarning qabul qilinishiga qaramasdan asosiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Hokimiyatlar tomonidan banklar va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga homiylik qilish, mehr-muruvvat tadbirlarida ishtirok etish kabi turli majburiyatlarning qo'yilishi banklar hamda korxonalarning moliyaviy holatini yomonlashishiga olib kelishi mumkin. Vaholangki, Prezidentimiz tomonidan bu borada yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha jiddiy qarorlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi tijorat banklari faoliyatiga mahalliy davlat hokimiyati organlarining aralashuviga, banklar va ularning filiallarini bank faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan tadbirlar va ishlarni bajarishga jalb etishga yo'l qo'ymaslik borasida banklar to'g'risida amaldagi qonun hujjatlarining ijrosi ustidan nazoratni

kuchaytirish vazifasi yuklatildi. Qonun hujjatlarini buzishda aybdor bo`lgan mansabdor shaxslar ma'muriy va jinoiy javobgarlikka tortilishi ham ko`zda tutilgan.

3. Tijorat banklari kreditlari bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga doir zahirani shakllantirish va undan foydalanish tartibi

Aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar zahirasiining adekvatligi tahlili va zarur hollarda qo'shimcha zahiralarning yaratilishi davriy ravishda kamida oyiga 1 marotaba amalga oshirilishi lozim. Belgilangan me'yorlarga muvofiq yaratilgan rezervga nisbatan aktiv bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar miqdorining oshib ketishi mumkinligidan dalolat beruvchi faktlar va sharoitlar aniqlangan holda rezervga ehtimoliy yo'qotishlarga nisbatan yirik ajratmalar amalga oshirilishi kerak.

Umidsiz, deb tasniflangan kreditlar (aktivlar) hisobdan chiqarilishi va tegishli zahiralar darhol kamaytirilishi kerak. Xarajatlar ular tan olingan davrda hisobdan chiqarilishi kerak. Aktivning hisobdan chiqarilishi ssuda qisman yoki to'liq qaytarilishi mumkinligini inkor etmaydi. Agar ssuda(aktiv) noto'g'ri tasniflangan bo'lsa, qo'shimcha kreditlash va bankning ehtimoliy yo'qotishlari bilan bog'liq bo'lgan tavakkalchilikning batafsil tahlilisiz na joriy kredit bo'yicha qo'shimcha resurslar shaklida, na yangi kredit shaklida bank qarzdorga qo'shimcha mablag'lar berishi mumkin emas. Biroq, bank bankdagi depozit yoki bank nazorati ostidagi ssuda (aktivni) yaxshi ta'minlovchi boshqa garov bilan ta'minlangan qo'shimcha kredit bergan taqdirda yangi ssuda boshqa kreditlar noto'g'ri tasniflangan hollarda ham tashxis deb tasniflanishi mumkin.

Markaziy bank muayyan ssudalarning yanada qat'iyroq tasniflanishini yoki quyida keltirilgan noqulay faktlar va hollarning hech bo'lmaganda bittasi mavjud bo'lsa, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash uchun mo'ljallangan zahiraga qo'shimcha chegirmalarni ajratishni talab qilishi mumkin:

- bank kredit portfeli umumiy holatining yomonlashuvi;
- kreditlar berish adekvat bank tadbirlarining o'zgarishi yoki yo'qligi;
- shunga o'xshash ssudalar, masalan, ushbu sohaga berilgan bo'yicha bank ko'rgan amaldagi zaralar;
- bank rahbariyatining muammoli ssudalarni o'ndirishga noqobiliyati;
- yirik ssudalarning to'planishi;
- nomaqbul iqtisodiy yo'nalish va sharoitlar, xususan, qarzdorlarning bir yoki bir necha sanoat tarmoqlari yoki jo'g'rofik mintaqada katta miqdorda to'planishi;
- taqdim etilgan bank hisobotini tahlil qilish yoki Markaziy bank nazoratchilari tomonidan o'tkazilgan qarzdorning yohud bankning o'zining moliyaviy ahvoriga taalluqli inspeksiya natijasida aniqlangan boshqa holatlar.

Aktivlar bo'yicha ehtimoliy zararlarni qoplash zahiralari ajratmalar Ehtimoliy zararlarni baholash hisobraqami orqali bank xarajatlari kiritilishi va joriy davr uchun Foydalar va zaralar to'g'risidagi hisobotning Aktivlar va lizing bo'yicha ehtimoliy zararlarni baholash satrida aks ettirilishi lozim.

Zahiralarning noadekvatligi hollarida bank tomonidan zahiralarning yetishmovchiligi aniqlangan davrda zahiralarga qo'shimcha ajratmalar qilinishi zarur. Bu Ehtimoliy zararlarni baholash (Foyda va zaralar to'g'risida hisobot) hisobraqamini debetlash va Aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zahira (Balans hisoboti) hisobraqamini kreditlash yo'li bilan amalga oshiriladi.

Agar bank aktivlari portfeli tahlil qilinganidan keyin uning zahiralari talab qilinganidan ortiq bo'lsa, u holda bank Aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zahira (Balans hisoboti) hisobraqamini debetlashi va Ehtimoliy zararlarni baholash (Foyda va zaralar to'g'risida hisobot) hisobraqamini kreditlashi lozim.

Aktivlar bo'yicha ehtimoliy zararlarni qoplash zahiralari adekvat darajasini doimiy ravishda ushlab turishning ta'minlanishi uchun to'liq javobgarlik Bank kengashiga yuklatiladi.

Boshqaruv tomonidan Kredit qo`mitasi va bank Kengashi bilan kelishilgan holda kredit yoki boshqa aktivni to`liq summada ishonchsiz deb ko`rib chiqish to`g`risida qaror qabul qilinsa (Kengash qarori Kengash majlisi bayonnomasida belgilangan tartibda aks ettirilishi lozim), u holda ushbu aktiv ñEhtimoliy zararlarni qoplash uchun zahiralarò hisobraqamini debetlash va tegishli aktiv hisobraqamini kreditlash yo`li bilan balansdan chiqarilishi zarur. Zahira summasi ehtimoliy yo`qotishlarga yetishmovchiligi hollarida ushbu Tartibga muvofiq qo`shimcha ajratmalar qilinishi lozim. Hisobdan chiqarilayotgan aktiv bo`yicha olinadigan hisoblab yozilgan foizlarni hisobga olish shaxsiy hisobraqami ham bir vaqtning o`zida ushbu muayyan aktiv bo`yicha ñOlinadigan hisoblab yozilgan foizò hisobraqamini kreditlash va ñFoizli daromadò hisobraqamini debetlash yo`li bilan yopilishi zarur.

Ssuda qarzi va hisoblab yozilgan foizlarning bankning balansidan chiqarilishi ssuda va foizlar bo`yicha qarzlarning bekor qilinishi emas. SHuning uchun ko`rsatilgan qarz u hisobdan chiqarilgan vaqtdan boshlab besh yildan kam bo`lmagan muddat davomida balansdan tashqari hisobraqamlarda aks ettirilishi lozim. Bank asosiy qarz va ushbu hisobdan chiqarilgan kredit bo`yicha foizlarni o`ndirish uchun barcha urinishlarni qo`llashi zarur. Bank qarzdor majburiyatining to`liq summasini to`g`ri aks ettirish uchun mazkur aktivga (balans ortida) foizlar hisoblab yozishni davom ettirishi mumkin.

Bunda bank muntazam ravishda, bir oyda kamida bir marta, qarzdor mijozga balansdan tashqari hisobraqamlardagi qoldiqlarga mos keladigan asosiy qarz va olinadigan hisoblab yozilgan foizlar bo`yicha muddati o`tgan qarzning mavjudligini tasdiqlovchi ko`chirmani yuborishi lozim. Ushbu ko`chirmalar bankning muddati o`tgan qarzlarni o`ndirib olish bo`yicha (da`vo qilish muddati davomida) sud organlariga murojaat etishi uchun asos bo`ladi.


Markaziy bank yoki O`zbekiston Respublikasi Hukumati qaroriga ko`ra markazlashtirilgan resurslar yohud boshqa mablag`lar hisobidan berilgan yoki ular tomonidan kafolatlangan aktivlarning bankning balansidan chiqarilishi Markaziy bank yohud Hukumat oldidagi qarzlarning bekor qilinishi emas. Bank Markaziy bank yoki O`zbekiston Respublikasi Hukumati oldidagi qarzlarni xatto agar ushbu mablag`lar hisobidan berilgan kreditlar ilgari tuzilgan kredit shartnomalariga muvofiq to`lanmagan bo`lsa ham qaytarishi shart. Agar qrdor balans ortida hisoblanadigan aktiv bo`yicha karzni u hisobdan chiqarilganidan keyin 5 yil davomida to`lasa, u holda ushbu aktiv (asosiy qarzlar ham, foizlar ham) balansdan tashqari hisobraqamlardan chiqariladi. Agar qrdor ehtimoliy zararlarni qoplash uchun zahira barpo etilganaktiv bo`yicha qarzlar hisobraqamiga to`lasa va qarz tijorat bankining malansidan chiqarilmagan bo`lsa, u holda ñEhtimoliy zararlarni qoplash uchun zahiralarò hisobraqami debetlanadi va ñEhtimoliy zararlarni qoplash uchun zahiralarò hisobraqami kreditlanadi.

Agar qrdor ushbu aktiv balansdan to`liq chiqarilganidan keyin qarzlar hisobraqamiga to`lasa, u holda bank tomonidan ñEhtimoliy zararlarni qoplash uchun zahiralarò hisobraqami kreditlanadi, tegishli aktiv hisobraqami, masalan qarzni to`lash uchun pul olinishini aks ettirish kassasi hisobraqami debetlanadi va, oqibatda, bank tomonidan ñEhtimoliy zararlarni qoplash uchun zahiralarò hisobraqami debetlanadi va ñEhtimoliy zararlarni qoplash uchun zahiralarò hisobraqami kreditlanadi, bu bilan shu vaqtgacha balansdan chiqarilgan zararlar bank daromadlari oqimiga qaytariladi.

1i grafik⁴

Ba'zi mamlakatlarda bank sohasidagi inqiroz davrida ishlamayotgan aktivlar hajmi

⁴ f Ols G f d d l s f u j f f q ? B O l s f f q ? x l a d o l - 4, 2008



Bunday tuzilmalarning asosiy maqsadi bo'lib tijorat banklarining muammoli kreditlarini ajratib, chiqarib olish hisoblanadi. Sotib olingan kreditlar korporasiyaning qarz majburiyatlari yoki aksiyalariga, yoxud bevosita hukumatning qarz majburiyatlariga almashtiriladi. Mazkur yondashuvning afzalligi bo'lib muammoli kreditlarni tez ajratib olish imkoniyatining mavjudligi, kamchiligi bo'lib esa alohida tuzilmani shakllantirish uchun qo'shimcha xarajatlarning mavjudligi hamda restrukturizasiya jarayonining uzoq davom etishi hisoblanadi. Muammoli qarzдорlikni restrukturizasiya qilish bo'yicha xorijiy tajribaning tahlili kredit portfelida muammoli kreditlari mavjud banklar sonining ko'pligida va sotib olinayotgan aktivlar o'xshashligining ma'lum darajasida restrukturizasiyaning bunday usuli ko'proq ma'qul bo'lishini ko'rsatmoqda.


Markazlashmagan usulning mohiyati bankning tarkibida yoki uning doirasidan tashqarida ishlamayotgan aktivlarni boshqarish bo'yicha tegishli tuzilmani tashkil etishdan iboratdir. Bunday yondashuv SHvesiya va Polshada qo'llanilgan. Qiyinchilikni boshdan kechirayotgan banklarning soni ko'p bo'lmaganda, markazlashmagan usuldan foydalanish ko'proq samara beradi. Mazkur usulning afzalligi shundaki, banklar muammoli kreditlarni boshqarish bo'yicha yuqori malakaga ega bo'lishi mumkin. Bu modelning ijobiy tomonlari bilan bir qatorda salbiy tomonlari ham mavjud, ya'ni banklar tashqi aralashuvsiz o'z faoliyatini o'zgartirishga qodir bo'lmashligiga, shuningdek muddati o'tgan qarzдорlikka ega bo'lgan mijozlarni kreditlashni davom etishi mumkin. Yaponiya va SHvesiyada muammoli kreditlar bilan ishlashda ikkala usuldan ham foydalanilgan.

Banklardan muammoli kreditlarni sotib olish jarayonini Markaziy bank (CHili, Vengriya, Polshada) bilan bir qatorda restrukturizasiya qilish bo'yicha agentlik (CHexiya, AQSH, Meksika, Janubiy Koreya) ham amalga oshirishi mumkin.

2i grafik⁵

Ba'zi mamlakatlarda tijorat banklaridan sotib olingan muammoli kreditlarning o'rtacha bahosi

⁵ J. O'zbekiston Respublikasi Banklari tomonidan 4, 2008.



Muammoli aktivlarni banklarning boshqaruvida qoldirishning ijobiy tomonlaridan yana biri bo'lib banki mijoz munosabatlarining uzilmasligi hisoblanadi. Bunday qaror qarzni so'ndirilishi taqdirida kredit munosabatlarini qayta tiklashga imkon beradi.

Korporasiya tomonidan muammoli aktivlarni sotib olish pul mablag'lari bilan bir qatorda hukumat kafolati ostidagi obligasiya va veksellar hisobiga ham amalga oshirilishi mumkin. Mo'ljallanishicha, so'ndirish muddatining tugashiga qadar muammoli aktivlarning ko'p qismi qoplanadi, bundan olingan mablag'lar esa qimmatli qog'ozlar bo'yicha to'lovlarga yo'naltiriladi.

Muammoli aktivlarni boshqarish bo'yicha ikkita asosiy strategiya mavjud. Birinchi strategiyaning asosida aktivlarni kelgusida sifati tushishining budjetga salbiy ta'sirini kamaytirish maqsadida ularni kechiktirmagan holda sotish yotadi. Bu yerda past sifatli aktivlarning ko'p hajmda sotilishi ularning qiymatini pasayib ketishiga xizmat qilishi mumkinligi ehtimoli ham mavjuddir.

Ikkinchi yondashuvning mohiyatiga ko'ra, ma'lum vaqt dvomida korporasiya muammoli kreditlar bilan ishlaydi va ularning qiymati maksimal darajaga yetganda ularni asta-sekin sotadi.

U yoki bu strategiya, yoxud ikkalasining o'rtasidagi biror kelishuv variantlaridan birini tanlab olish korporasiya oldida turgan maqsad va vazifalar, mamlakatdagi umumiy iqtisodiy holat hamda bank sohasidagi inqiroz sharoitlaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Xulosa

Butun dunyoda muammoli kreditlar bilan ishlash bo'yicha umumiy maslahatlar berish juda ham qiyin. Har bir mamlakatda kreditlar bilan yuzaga keladigan muammolar va bular ketidan keladigan inqirozlarning o'z xarakteri, o'z xususiyati bor, ya'ni ular turlichadir. Bunday inqirozlar har biri o'z xarakteridan kelib chiqib o'ziga xos usulni talab qiladi. Muammoni hal qilishning qaysidir texnologiyasi bir mamlakat uchun universal bo'lsa, qaysidir boshqa mamlakat uchun unday bo'lmashligi mumkin. Lekin shunga qaramay, yuqorida biz sanab o'tgan Koreya, Xitoy, Rossiya va boshqa shu kabi mamlakatlarda 10 yilcha oldin yuz bergan inqirozdan olib chiqqan texnologiyalarning ko'pchiligini bizning mamlakatimiz bank tizimida ham qo'llasa bo'ladi. Bu sanoatni, texnologiyani, xizmatlar sohasini rivojlantiradi. Faqat iqtisodiyoti rivojlangan sivilizasiyalashgan mamlakatlarda bank kreditini oluvchi tashkilotlar orasida nobarqaror bozor va biznes bilan hisoblashmay tashkil etilgan kompaniyalar bizga nisbatan juda ham oz. Lekin bunda O'zbekistonning o'ziga xos xususiyatlarini, muammolarini hisobga olish lozimdir. Bizda moliya bozorini yanada rivojlantirish lozim. Ushbu bozorda banklarning daromad darajasi juda ham past. Bu daromadni o'stirish bilan O'zbekistonning moliya bozorini rivojlantirib, uni sivilizasiyalashgan darajaga olib chiqish lozim. Bunday vaziyatda O'zbekiston banklari uchun bank kreditlari katta ahamiyatga ega. Banklar kredit stavkalarini rivojlangan mamlakatlardagi foiz stavkalari darajasigacha yetkazishga harakat qilib, uni yillar davomida tushirib kelmoqda. Hozirgi kunda respublikamizda qayta moliyalashtirish foiz stavkasi 14% ni tashkil etib turibdi. Lekin qayta moliyalashtirish foiz stavkasining juda ham pasaytirib yuborilganligi(2%) va xorijiy valyutadagi arzon kreditlarga bo'lgan talabning oshib ketgani yevropa mamlakatlari uchun salbiy oqibatlarni keltirib chiqarganligini ham unutmaslik lozim.

yevropa va AQSHda qaytmagan va to'lanmagan kreditlar juda ham katta miqdorni tashkil etmoqda. Agar Respublikamizda aniq ishlab chiqilgan chora-tadbirlar joriy etilmasa, kreditlar ustidan qattiq nazorat usuli o'rnatilmasa, bizda ham kredit inqirozi yuz beradi. Lekin bizda banklarning kreditlari bo'yicha to'lov muddati o'tgan va joriy qarzlarni miqdorini qayta ko'rib chiqish, sanoat korxonalarida mavjud kreditorlik qarzlarni restrukturizatsiya qilish, davlat kafolatlari ostida berilgan katta hajmdagi kredit mablag'larining qaytarilishi 2008 yilda muammoli kreditlar hajmini pasayishga sabab bo'ldi. Davlat tomonidan 500 mlrd. so'm miqdoridagi pul mablag'lari bank tizimi likvidligini ta'minlashga ajratildi. Lekin bu mablag' banklar uchun yetarli emas.

Agar respublikamiz tijorat banklari kredit partfelini ko'radigan bo'lsak, ular ichida muammoli kreditlarning eng yuqori ulushi O'zbekiston Respublikasi TIF Milliy bankiga to'g'ri kelganini ko'rishimiz mumkin. 2007 yilgacha ushbu bank ulushidagi muammoli kreditlar miqdori 50.5% gacha yetgan. 2008 yildan e'tiboran davlat kafolatiga olgan kreditlar bilan yuzaga kelgan muammoli kreditlarning ikkinchi manba hisobiga, ya'ni davlat tomonidan so'ndirilishi bank muammoli kreditlari hajmining pasayishiga olib kelgan bo'sada, bank muammoli kreditlar ulushining yuqoriligi bilan yetakchilik qilmoqda. SHu sababli ham so'nggi yillarda mamlakatimiz bank tizimida Milliy bank hissasiga to'g'ri keladigan qarzdorlik ulushini imkon qadar pasaytirish dolzarb muammo bo'lib kelmoqda. Ushbu bank kredit mablag'larining katta qismi davlat kafolati ostida uzoq muddatli investision loyihalarga yo'naltirilgan.

Banklarning muddati o'tgan qarzdorlik bo'yicha ish sudga oshirilgan va sud qarori bank foydasiga hal bo'lgan hollarda banklarning o'z mablag'larini vaqtida qaytarilishini ta'minlash uchun sud qarorlarini ijro etuvchi organlarning javobgarlik choralari oshirish lozim. Xo'jalik va fuqarolik sudlari qarorlarining, shuningdek, notarial qarorlarni amalga oshirilishini cho'zib yuborishi natijada undirilayotgan mol-mulkning eskirishini oldini olish uchun tegishli organlarni jinoiy javobgarlikka tortishgacha bo'lgan choralarni ko'rish banklarning muddati o'tgan qarzdorlik muammosini yechilishi yo'lida eng muhim dastaklardan biri bo'ladi.

Kreditlarning muammoli kreditlar turkumiga o`tib qolishini birinchi bosqichi bu kreditni rasmiylashtirishdan boshlanadi. To`liq va sifatli tahlilning olib borilmasligi bilan bir qatorda, garovga olingan mulkni yuqori baholash natijasida, chiqarilayotgan maxsulot tan-narxiga ta'siri natijasida korxona zarar ko`radi va olingan kredit muammoliga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining ñO'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risidaògi Qonuni //i T.: ñO'zbekistonò, 2003. i B. 7-29.
2. O'zbekiston Respublikasining ñBanklar va bank faoliyati to'g'risidaògi Qonuni //i T.: ñO'zbekistonò, 2003. i B. 30-47.
3. O'zbekiston Respublikasining ñGarov to'g'risidaògi Qonuni (yangi tahriri). O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 1998 yil - 5-6.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 18 noyabrdagi PF-4053-son ñIqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risidaògi Qarori // Halq so'zi. i 2008. i 22 noyabr.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 4 dekabrdagi 422-son ñBanklarning kreditlari bo'yicha qarzdorlik o'z vaqtida qaytarilmagan taqdirda undiruvni qarzdorlarning likvidli mol-mulkiga qaratish tartibini tasdiqlash to'g'risidaògi Qarori // Halq so'zi. i 2002. i 5 dekabr.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 24 martdagi 104-son ñBank tizimini isloh qilishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidaògi Qarori // Halq so'zi. i 2000. i 25 mart.
7. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. i T.: O'zbekiston, 2009y.
8. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. i T.: O'zbekiston, 1995.
9. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investisiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida/ Tuzuvchi F.M.Mullajonov.- T.: ñO'zbekistonò NMIU, 2005, 8-b.
10. Abdullaev yo.A., Boboqulov T.U. Kredit. 100 savolga 100 javob. i T.: Mehnat, 1996. 128 b.
11. Abdullaeva SH.Z. Bank risklari va kreditlash. T.: Moliya, 2002. 124, 187-bb.
12. Abdullaeva SH.Z. Bank risklari sharoitida tijorat banklarining kredit portfelini diversifikasiyalash. Iqtisod fanlari doktori...dis. i T., O'zR BMA, 2000. 344 b.
13. Bazovye principy effektivnogo nadzora za bankovskoy deyatelnostyu. Konsultativnoe pismo Bazelskogo Komiteta po bankovskomu regulirovaniyu // Biznes i Banki. i 2005. - - 21(343).
14. Bank tizimi: asosiy vazifa i islohotlarni chuqurlashtirish // Bank axborotnomasi. i 2005. - - 10. 1-b.
15. Bankovskoe delo: Uchebnik / Pod red. V.I.Kolesnikova. i M.: Finansy i statistika, 2006. 789 b.
16. Glinkin V. O restrukturizatsii problemnyx kreditnyx organizatsiy // Dengi i kredit. i 2000. - - 8. i B. 21-22.
17. Dengi, kredit, banki: Uchebnik / Pod red. O.I.Lavrushina. i M.: Finansy i statistika, 2005. 280 b.
18. Zokirov E. Bank kredit portfeli monitoringi // J. Bozor, pul va kredit. i 2001. i - 10. i B. 7-8.
19. Kuznesov S. O nekotoryx problemax bankovskoy sistemy Kitaya // J. Bozor, pul va kredit. i 2003. i - 9. i B. 66-68.
20. Kulishev B. Tijorat banklarining garov mulklari bilan ishlashi // J. Bozor, pul va kredit. i 2001. i - 5. i B. 14-19.

21. Mullajonov F. Bank tizimidagi islohotlarni chuqurlashtirish i ustuvor vazifamiz // J. Bozor, pul va kredit. i 2005. i - 8. i B. 3-10.
22. Mullajonov F. O`zbekiston Respublikasi bank tizimi: O`zbekiston Respublikasi mustaqilligining o`n yilligiga bag`ishlanadi. i T.: O`zbekiston, 2001. 296 b.
23. Tuxtabaev U.A. Muammoli kreditlarning kelib chiqishiga ta'sir etuvchi omillar // O`zbekiston Respublikasi bank va moliya tizimlarida islohotlarni chuqurlashtirish muammolari: Tez. dokl. xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 15 iyun 2005 yil. i T.: Moliya, 2005. i B. 76i 78.
24. Usoskin V.M. Sovremenniy kommercheskiy bank. Upravlenie i operasii. i M.: IPS «Vazar-Ferro», 2001. i B. 263-267.
25. Xasanov J. Kichik va o`rta biznes sub'ektlariga ajratilgan kreditlar qaytarilishini ta'minlash // J. Bozor, pul va kredit. i 2003. i - 9. i B. 8-11.
26. Ermamatov SH. Muammoli kreditlarni undirish masalalari // J. Bozor, pul va kredit. i 2004. i - 4. i B. 7-9.
27. Qodirov A. O`zbekiston bank tizimi: yuksalish odimlari // J. Bozor, pul va kredit. i 2005. i - 9. i B. 7-16.
28. G`ozibekov D.G`. Investisiyalarni moliyalashtirish masalalari. T.: nMoliyaò, 2003, 81-b.
29. G`ulomov S.S. Investisiyalarning loyihaviy tahlili. i T.: ToshDAU, 2003. i B. 42-45, 120-133.
30. Hubbard Glenn. Money, the financial system, and the economy/ Addison-welseey Publishing Company, Inc. Columbia University, 2006. i B. 314-318.

Foydalanilgan internet saytlar ro`yhati:

<http://www.cbu.uz/>
<http://www.worldbank.org/>
<http://www.imf.org/>
<http://www.ecb.int/>
<http://www.standartandpoors.ru/>
<http://www.fdic.gov/>
<http://www.ebrd.org/>
<http://www.banker.com/>
<http://www.ifc.org/>
<http://www.federalreserve.gov/>